

## IQTISODIYOTNING RAQAMLASHUVI SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATGA O'TISH ISTIQBOLLARI

**Suyunov Dilmurod Xolmurodovich**

*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi iqtisod fanlari doktori professori*

**Musinova Muxlisa Azamatovna**

*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada jahon va O'zbekiston misolida elektron tijorat bozorining zamonaviy holati, unga turtki berayotgan raqamlashuv omillari, qonunchilikdagi yangiliklar va kelgusi rivojlanish ssenariylari tahlil qilinadi. Shuningdek, bozordagi mavjud to'siqlar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Elektron tijorat, raqamlashuv, qonunchilik, bozor tahlili, to'siqlar, rivojlanish strategiyalari*

**Annotation:** *This article analyzes the current state of the e-commerce market globally and in Uzbekistan, exploring the driving factors behind digitalization, recent legislative developments, and possible future growth scenarios. The study also identifies existing barriers in the market and provides practical recommendations to overcome them.*

**Keywords:** *E-commerce, digitalization, legislation, market analysis, barriers, development strategies*

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, internet va mobil aloqa sohasidagi ilg'or yutuqlar jahon iqtisodiyotida tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Xususan, elektron tijorat (e-commerce) sohasi jadal rivojlanib, global bozordagi salmog'ini yil sayin mustahkamlamoqda. 2024 yil yakunlari bo'yicha elektron tijorat aylanmasi 27 trillion dollardan oshib, umumiy chakana savdoning 22 foizini tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar global iste'molchilarning onlayn xaridlarga bo'lgan talabining oshib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Elektron tijorat nafaqat mahsulot va xizmatlardan foydalanish imkonini osonlashtirmoqda, balki butun iqtisodiyotda yangi qiymat zanjirlarini vujudga keltirmoqda. Onlayn savdo platformalari, raqamli marketing, logistika va fintex xizmatlari kabi tarmoqlar birgalikda raqobatbardosh ekotizimni yaratib, yangi ish o'rinlari va kichik hamda o'rta biznes sub'ektlari uchun yangi bozor eshiklarini ochmoqda.

2023 yilda dunyo bo'yicha 2,3 milliard kishi onlayn xaridlarni amalga oshirdi. Bu ko'rsatkich 2017 yilga nisbatan 68 foizga o'sgan. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar raqamli xizmatlar eksportida faol ishtirok etmoqda. 2023 yilda ushbu davlatlarda raqamli

xizmatlar eksporti 9 foizga oshib, umumiy xizmatlar eksportidagi ulushi 46 foizga yetdi. Bu tendensiya O'zbekiston kabi davlatlar uchun transchegaraviy savdo va raqamli bozorlarga chiqish imkoniyatini yaratib beradi.

O'zbekistonda ham global tendensiyalarga mos ravishda elektron tijorat sohasi izchil rivojlanmoqda. 2025 yil boshiga kelib, mamlakatda internet foydalanuvchilari soni 32,7 million nafarga yetdi va internet qamrovi 89 foizni tashkil etmoqda. 2024 yilda mamlakatda onlayn bozor aylanmasi 300 million dollarga yetdi va 2027 yilga qadar bu ko'rsatkich 1 milliard dollargacha yetishi kutilmoqda.

KPMG tahlillariga ko'ra, 2023–2027 yillarda O'zbekistonda elektron tijoratning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 41–47 foizni tashkil etishi mumkin (CAGR). Bu esa elektron tijoratni milliy iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri sifatida ko'rsatadi.

O'zbekistonda to'lov infratuzilmasining yangilanishi va fintex sohasidagi yutuqlar elektron tijorat o'sishining muhim asoslaridan biriga aylandi. 2023 yilda Uzcard va HUMO orqali amalga oshirilgan P2P to'lovlar hajmi 224,3 trln so'mni tashkil etdi, QR to'lovlar esa 2,5 barobar oshdi. 2024 yil oktyabridan boshlab Tez QR orqali kartasiz to'lov xizmatlari yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Click, Payme va Uzum Pay kabi mahalliy fintex platformalar banksiz raqamli to'lovlarni ommalashtirmoqda.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida mamlakatda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, fintech sohasini kengaytirish va raqamli savdoni tartibga solishga oid aniq vazifalar belgilandi. Shu jumladan, elektron tijorat sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish, logistika xablarini tashkil etish, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishga doir yangi qoidalar qabul qilindi.

**Xulosa:** Elektron tijorat dunyo va O'zbekiston iqtisodiyotida tobora muhim o'rin egallamoqda. Jahonda onlayn savdoga bo'lgan talabning oshib borishi, raqamli to'lov va logistika infratuzilmasining rivojlanishi, hamda internet foydalanuvchilar sonining o'sishi elektron tijoratni iqtisodiy o'sishning muhimi drayveriga aylantirmoqda. O'zbekiston bu jarayondan chetda qolmayapti. Qabul qilinayotgan siyosiy islohotlar, fintex va raqamli infratuzilmaning tezkor rivojlanishi, huquqiy bazaning takomillashuvi mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Elektron tijorat soha sifatida nafaqat ichki bozorni, balki eksport salohiyatini ham kengaytirish imkoniyatiga ega.

## REFERENCES

1. UNCTAD, "Forward Together: Making e-commerce work for all", 2024 [etradeforall.unctad.org](https://tradeforall.unctad.org).
2. DataReportal "Digital 2025: Uzbekistan", 2025 [DataReportal – Global Digital Insights](https://datareportal.com/reports/digital-2025-uzbekistan/).
3. Kun.uz, "Uzbekistan's e-commerce sector set to surge...", 03.05.2024 [Daryo.uz](https://kun.uz).

4. Xolmurodovich S.D. Global iqtisodiyotda barqaror biznes modellarini shakillantirish, ijtimoiy mas'uliyatning ahamiyati //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 84-88.

5. Xolmurodovich S.D. Global iqtisodiyotda barqaror biznes modellarini shakillantirish, ijtimoiy mas'uliyatning ahamiyati //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 84-88.

6. Suyunov D. X. Kichik va o'rta biznesda yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari: loyihaviy yondoshuvlar va samaradorlikni baholash //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 79-83.

7. Suyunov D. X. Scientific and theoretical approach to the implementation of digital transformation of corporate governance in joint-stock companies// Actual problems of business development and entrepreneurship in the digital economy, international scientific and practical conference. 2022.12.23

8. Suyunov D. X. Kichik va o'rta biznesda yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari: loyihaviy yondoshuvlar va samaradorlikni baholash //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 79.

9. D.D. Suvanova. Digitalize enterprise business processes methodological approach. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. Volume 1, Issue 9, December, 2023 ISSN (E): 2938-3811.

10. D.D. Suvanova The digitalization of business processes itself scientific approaches to the characteristics. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. Volume: 19 December 2023.

11. D.D. Suvanova. Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. Elektron nashr.. 2024-yil avgust. № 8-son. 277- sahifa.

12. Suyunova D.D. Rakamli korporativ boshkaruvni joriy etishning ilg'or xorij rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ijobiy tomonlarini joriy qilish. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376>. 2025, fevral.

13. Suyunova D.D. Rakamli iktisodiyot tizimi iktisodiyotni rivojlanishining elektron mexanizmi. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2559/2375>. 2025, fevral.

14. Suyunova D.D. Factors affecting the digitalization of corporate management in joint joint stock companies and scientific approaches to risk assessment. "Ekonomika i sotsium" №11(126). [https://www.iupr.ru/files/ugd/b06fdc\\_5772198\\_b03034\\_ea1\\_b82d7241321.acec8.pdf,index.true](https://www.iupr.ru/files/ugd/b06fdc_5772198_b03034_ea1_b82d7241321.acec8.pdf,index.true). 2024, noyabr.

15. Suyunova D.D. Korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasiga ilmiy qarashlar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 7 -

son, UO‘K: 35.073.6. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss.7-pp.393-402.2024>, iyul.

16. Suyunova D.D. Corporate in joint stock companies ways to use digital technologies to improve management. European journal of research development and sustainability (EJRDS). Vol. 4 no 09, issn: 2660-5570. <https://scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/3825/3055>.2023, sentyabr.

17. D.X.Suyunov O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlash mexanizmlari. Science and innovation 2 (Special Issue 13), 486-488.2023.

18. D.X. Suyunov Theoretical principles of improving the modern corporate control system in joint stock companies International journal of economic perspectives. 16 (11), 90-97.2022.

19. D.X. Suyunov, S.E. Elmirzayev Korporativ boshqaruv. Darslik–Toshkent 2022.450 bet.

20. A.K. Olimovich, M.Butabaev, S.D. Kholmuradovich Project management in the system of strategic company management Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11 (7), 40-44. 2023.

21. D.X. Suyunov Ways of its Development in Uzbekistan, BPG Economy Genius Repository 24, 7-15.2023.

22. D.X. Suyunov, E.A.Xoshimov Zamonaviy sharoitlarda O‘zbekistonda korporativ boshqaruv tizimi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari. Журнал Экономика и инновационные технологии, 2019. 197-210 бетлар.

23. B.F.Ganixodjaev, D.X.Suyunov, Sh.Xusainov. Posobie po korporativnomu upravleniyu. Tashkent–adabiyot uchkunlari 2017.

24. D.KH. Suyunov, Kaytarov. V. (2023) Problems in the development of remote banking services in commercial banks of Uzbekistan World economics and finance bulletin 26, 39-46.

25. Б.Ф.Ганиходжаев, Д.Х. Суюнов, А.Т. Кенжабаев, А. Кувандиков Развитие цифровой экономики в Узбекистане и ее основные направления Экономика и бизнес: Теория и практика, 38-43 2.2023.